XALQ DEPUTATLARI XOVOS TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 11 - mart VI-56-44-9-129-K/23 Xovos tuman hokimligi

Xovos tuman mahalliy byudjetining 2023-yil shakllangan qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 126-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. Xovos tuman hokimining tuman mahalliy byudjetining shakllangan qo‘shimcha manbalari (erkin qoldiq) hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xovos tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman mahalliy byudejitining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:

- Xovos tuman hokimligining “id.gov.uz” tizimidan foydalanish uchun 11820.0 ming so‘m, “e-xat” tizimidan foydalanish uchun 494.0 ming so‘m, “e-qaror” tizimidan foydalanish uchun 49200.0 ming so‘m, pochta marka va konvertlari sotib olish harajatlari sotib olish harajatlari uchun 10000.0 ming so‘m, jami 71514.0 ming so‘m (yetmish bir million besh yuz o‘n to‘rt ming) miqdorida mablag‘ ajratish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan tadbirlarni bajarish maqsadida hamda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlariga tuman mahalliy

byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish amalga oshirilsin.

5. Xalq deputatlari Xovos tuman Kengashi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

- 2023-yil tuman mahalliy byudjetida shakllanadigan qo‘shimcha manbalari hisobidan kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirishini nazoratga olish;

- byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Byudjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Xovos tuman Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Nurmatov zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **U.I. Kamolov**